

## KORXONA JIHOZLARI FANINI O‘QITISHDA AUTO PLAY MEDIA STUDIO DASTURINING O‘RNI

*Davlatov Farrux Farxodovich*

*Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti katta o‘qituvchisi*

*[fdavlatov87@mail.ru](mailto:fdavlatov87@mail.ru)*

**Annotatsiya:** Maqolada AutoPlay Media Studio dasturi yordamida oily ta’lim tizimida o‘qitiladigan “Korxonalar jihozlari” fanidan “Maydalash usullari, uskunalari va ishlash qoidalari” mavzusi bo‘yicha tayyorlanagan elektron o‘quv moduli yoritilgan. Shuningdek maqolada mavzu bo‘yicha multimediali elektron o‘quv modulini tayyorlash va ishlatish to‘g‘risida ko‘rsatmalar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** maydalash, qurilma, o‘quv moduli, multimediya dastur, AutoPlay Media Studio, iSpring QuizMaker, Power Point, Flash, fayl.


Oliy ta’lim muassasalarida talabalarning multimediali dasturlarga qiziqishlaridan kelib chiqqan holda, ularning o‘qishlaridan tashqari mustaqil holda fan yuzasidan mavzularni qo‘shimcha o‘rganib, o‘zlashtirishlari uchun o‘quv materiallarning multimedialashgan variantlarini ishlab chiqish shu kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Ushbu vazifalarni amalga oshirish maqsadida oliy ta’lim tizimi kimyoviy texnologiya (noorganik moddalar) bakalavriat yo‘nalishida ta’lim oladigan talabalar uchun multimediali “Korxonalar jihozlari” fanidan “Maydalash usullari, uskunalari va ishlash qoidalari” mavzusining elektron o‘quv moduli ishlab chiqildi. Modulda talabalar mavzuni o‘zlashtirish uchun zarur bo‘lgan nazariy bilimlar mazmuni alohida taqsimlab berildi. “Korxonalar jihozlari” fanining nazariyasini va amaliyotda ishlatilishini chuqurroq o‘zlashtirishida amaliy mashg‘ulotlar va ko‘nikmalar bo‘lishi talab qilinadi. Shuning uchun modulda amaliy mashg‘ulot mavzulari, har bir mashg‘ulotda talabani o‘zlashtirishi kerak bo‘lgan nazariy va amaliy bilimlari natijasi, javob berishi kerak bo‘lgan misol, masala va test savollari, mustaqil o‘qish va referatlarning na’munaviy mavzulari keltirildi.

Hozirgi kunda elektron o‘quv adabiyotlarni tayyorlashda ko‘pgina dasturlar mavjud bo‘lib, “Korxonalar jihozlari” fanidan “Maydalash usullari, uskunalari va ishlash qoidalari” mavzusi bo‘yicha tayyorlagan elektron o‘quv modulini tuzishda AutoPlay Media Studio dasturiy ta’minotidan foydalanildi.

Birinchi navbatda AutoPlay Media Studio dasturini yuklab olamiz va kompyuter qurilmasiga o‘rnatamiz (1-rasm). Dastur bir qator afzalliklarga ega Autoplay Media Studio dasturi har qanday fayllarni bitta interfeysda to‘plash uchun ishlatiladi. Uning yordami bilan siz portfel va elektron o‘quv qo‘llanmasini yaratishingiz mumkin.

Loyihani ishlab chiqqandan so‘ng, uni bajariladigan fayl sifatida saqlashingiz mumkin, dastur avtomatik ravishda barcha kerakli fayllar va autorun fayli bilan papkani yaratadi.




*1-rasm. AutoPlay Media Studio dasturi bosh interfeysi*

Ushbu elektron modul ko‘pgina funksiyalarga ega bo‘lib, talabalarning undan foydalanishlarini ancha osonlashtiradi. AutoPlay Media Studio ilovalarni boshlash menyusidan tortib tayyor Windows ilovalarigacha hamma narsani tezda ishlab chiqish tez ishlab chiqish uchun ajoyib dastur hisoblanadi. Mazkur dastur CD/DVD/USB menyulari va yordamchi dasturlardan tortib avtomatik ijro etish o‘yinlar va interaktiv multimedia ilovalarigacha – veb-interfeysi, ma’lumotlar bazasiga ulanishi, video tinglash va boshqalarni yaratish uchun ideal vosita hisoblanadi. AutoPlay Media Studioning asosiy xususiyatlari shundaki ushbu dastur va dasturlarni ishga tushirish, tovushlarni ijro etish, fayllarni chop etish, internet saytlarini ochish uchun turli tugmalar bilan menyularni loyihalash uchun tayyor shablonlarni o‘z ichiga oladi. Dastur shuningdek, loyihaga ko‘pgina faylli materialni qo‘shish imkonini beradi – jumladan: musiqa, video, flesh-animatsiya, matn. AutoPlay Media Studio yordamida yaratilgan loyihalar ayrim C++/Java-da ishlab chiqilgan professional mahsulotlardan kam emas va AutoPlay Media Studio yordamida yaratilgan dastur yakuniy bosqichda ob‘ekt modeli ko‘rinishida taqdim etiladi. Dasturda ishlangan loyiha sahifalarga istalgan ob‘ektlarni joylashtirishingiz mumkin (grafika, matn, video, Flash, HTML va boshqalar). Loyihaning istalgan elementiga, xoh ob‘ekt bo‘lsin, xoh sahifa bo‘lsin, ma’lum bir harakat tayinlanishi mumkin. Dastur ob‘ektlar bilan bog‘lanishi mumkin bo‘lgan yuzlab turli harakatlarni taqdim etadi, bundan tashqari, qo‘shimcha modullar - pluginlar yordamida AutoPlay Media Studio imkoniyatlarini kengaytirishingiz mumkin. Ularning yordami bilan siz dasturda tez-tez bajaradigan ba’zi vazifalarni avtomatlashtirishingiz mumkin. Masalan, siz tezda animatsion menyular, kataloglar daraxti, ma’lumotlar bazasini yaratishingiz va ularni boshqarishingiz mumkin, shaffoflik fonlari yordamida o‘zgacha shaklidagi autorun oynalarini yaratish qobiliyati mavjud. Bunday fon .jpg, .bmp, .png formatidagi grafik fayllar bo‘lishi mumkin.

Ushbu dasturda CD-R (CD-RW)ni bevosita dasturdan yozish imkoniyati, tayyor loyihani o‘z-o‘zidan ochiladigan arxiv sifatida taqdim etilishi yoki qattiq diskdagi alohida papkada saqlanishi kabi bir qator qulayliklari mavjud.

Marhamat, dasturdan foydalanish tartibi bilan tanishib chiqing.

Elektron o‘quv moduli ochilganidan keyin ekranda 2-rasmdagi oyna paydo bo‘ladi. Quyida siz ko‘rib turgan 2-rasmda ham modulni bosh sahifasi ko‘rinib turibdi.



2-rasm. “Maydalash usullari, uskunalari va ishlash qoidalari” mavzusi bo‘yicha tayyorlagan elektron o‘quv modulining bosh sahifasi

Oynaning yuqori qismida boshqaruvchi “Mavzuga kirish” tugmasi joylashgan.

Multmediali elektron o‘quv modulini yana bir qulayligi shundaki ushbu majmuaning 1-reja qismi bo‘yicha har-bir punktlar yaqqol ko‘rinib turganligi sababli ularga oson kompyuter sichqonchasini chap tugmasini bosgan holda kirish imkoniyati mavjud. Modulni reja qismi umumiy ko‘rinishi ochilgan holda quyidagi 3-rasmda ko‘rsatilgan.



3-rasm. Modulni reja qismi umumiy ko‘rinishi


Modulning mavzu bo‘yicha ma’ruza matnlari, amaliy mashg‘ulotlar, mavzu rejasi bo‘yicha taqdimot materiallari, mustaqil ta’lim bo‘yicha o‘quv-uslubiy materiallar, fan bo‘yicha o‘quv adabiyotlari, shu jumladan xorijiy adabiyotlar, elektron o‘quv adabiyotlari, tarqatma materiallar, videodarslar, videofilmlar, glossariy, test savollari multimediali taqdimotlar o‘rin olgan (3-rasm).

“Mavzu bo‘yicha o‘quv adabiyotlari” bo‘limiga o‘tilsa ekranda quyidagi ko‘rinishda namoyon bo‘ladi (4-rasm).



4-rasm Fan bo‘yicha o‘quv adabiyotlari bo‘limi ko‘rinishi

Multimediyali taqdimotlar bo‘limini ko‘rish uchun “O‘quv-uslubiy ta’minoti bo‘limi”dagi ushbu qismini tanlansa ekranda quyidagi ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. (5-rasm)



5-rasm Fanning multimediya qismi ko‘rinishi

Modulning ushbu qismi nazorat savollari to‘plami, o‘z-o‘zini nazorat qilish elektron testi (dasturi) kabi bo‘limlardan iborat. (6-rasm)

Ushbu majmuada joylashtirilgan test savollari to‘plamini o‘qitish jarayonida qo‘llash talabalarni shu fandan olgan bilimlarini qanday darajada ekanligini bilish,

qayta yangilib borish va rivojlantirish imkonini beradi. Bundan tashqari dastur bir qancha imkoniyatlarga ega. Biror bir fan bo‘yicha bilimga ega bo‘lmagan talabalar ham ushbu testdan foydalanishlari mumkin. Bunda ular bilmagan ma’lumotlarini o‘rganib boradi. Eng asosiy imkoniyatlaridan biri talabalar qisqa vaqt ichida ma’lum bir mavzuni yoki fanni qisman yoki to‘liq o‘zlashtirishlari mumkin. Bunda talabalar bilgan savollardan tez o‘tib bilmagan ma’lumotlarini o‘rganib oladilar.


O‘z-o‘zini nazorat qilish elektron testi (dasturi) iSpring QuizMaker dasturidan foydalanilgan (7-rasm). iSpring Kinetics dastur imkoniyatlari elektron ta’lim texnologiyalari resurslari ichiga kiruvchi elektron nazorat turlarini yaratish uchun iSpring QuizMaker dasturini keltirish mumkin Ushbu dastur yordamida 11 xil testlar yaratish mumkin. iSpring QuizMaker quyidagi asosiy imkoniyatlari mavjud:




7-rasm. iSpring Quiz Maker dasturining bosh interfeysi

1) tarmoqlangan testlar yaratish (adaptatsiyalashtirilgan testlar) imkoniyati; 2) ikki, uch, to‘rt yoki besh javobli 3) yopiq test topshiriqlari: ulardan biri to‘g‘ri, ikkitasi haqiqatga yaqinroq turdagi topshiriqlar; 4) bir necha to‘g‘ri javobli yopiq test topshiriqlari; 5) ochiq test topshiriqlari; 6) o‘xshashlikni aniqlashga yo‘naltirilgan topshiriqlar; 7) to‘g‘ri ketma-ketlikni aniqlashga mo‘ljallangan topshiriqlarni yaratish imkoniyati.

O‘z-o‘zini nazorat qilish elektron testi (dasturi) ga o‘tish uchun “Talabalar bilimi nazorati” bolimidagi “O‘z-o‘zini nazorat qilish elektron testi” yozuvi ustiga sichqonchani tugmasi bosilsa ekranga quyidagi ko‘rinishda fandan test dasturi ochiladi (8-9-rasmlar).



8-rasm. O‘z-o‘zini nazorat qilish elektron testi ko‘rinishi



9-rasm. iSpring dasturi elektron testi natijari ko‘rinishi

## Xulosalar

Fan mavzusi bo‘yicha mahalliy va xorijiy adabiyotlar hamda me‘yoriy hujjatlar chuqur tahlili qilindi, ma‘ruza matnlari asosida multimediali o‘quv moduli ssenariysi tayyorlandi. Keng imkoniyatlarga ega bo‘lgan Auto Play Media Studio dasturida “Maydalash usullari, uskunalari va ishlash qoidalari” mavzusining multimediali elektron o‘quv moduli ishlab chiqildi. Elektron o‘quv modelini materiallarini yaratish uchun – Power Point, Flash, interfaol testlar tuzish uchun – iSpring QuizMaker dasturlaridan samarali foydalanildi. Natijada bitiruv ishi mavzusi bo‘yicha 3 turdagi 30 dan ortiq darajali testlar tuzildi.

Mazkur modulni talabalarning mustaqil bilim olishlari uchun institutning veb saytiga joylashtirish hamda modul bo‘yicha ishlab chiqarilgan elektron resurslarni masofaviy o‘qitish tizimlarida foydalanish tavsiya etiladi.

### Foydalanilgan manbalar:

1. O.D.Raximov, J.M.Tur‘g‘unov, Q.O.Mustafoyev, H.J.Ro‘ziyev. - Zamonaviy ta‘lim texnologiyalari. -T. “Fan va texnologiya”, 2013. 172 bet.
2. H.T.Omonov - Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. T:-“Iqtisodmoliya”. 2009, 240 bet.
3. T. Madumarov, M. Kamoldinov “Innovation pedagogik texnologiya asoslari va uni ta‘lim tarbiya jarayonida qo‘llash”, T. “Talqin”, 2012 yil.
4. Yangi tipdagi o‘quv jarayonini tashkil etish bo‘yicha yo‘riqnomalar majmuasi (loyiha) Loyiha rahbari: SH.S.Sirojiddinov. Tuzuvchilar: A.S.Sharipov va boshqalar T:-2015 y
5. Muratov Khusan Holmuratovich. Implementation of independent educational activities of students. European journal of research and reflection in educational sciences. Vol. 7 No. 12, 2019. ISSN 2056-5852. 25-25.

6. Muratov, X. X. Tasviriy san’at fanidan mustaqil ta’limni tashkil etish va boshqarishda “iSpring” dasturiy ta’minotining ahamiyati. *Academic Research in Educational Sciences*, (2020). 1(2), 73-84.

7. Talipov Nozim Khamidovich, Talipov Nigmatjon Nozimovich, Yuldasheva Nilufar Ibrohimovna, Jabbarov Rustam Ravshanovich, Muratov Xusan Kholmuratovich. Development of students’ creative abilities through teaching. *Journal of critical reviews*. Vol 7, Issue 6, 2020. 227-230.

8. Xusan Xolmuratovich Muratov, Shoxista Alimjanovna Yusupova-academic research in educational sciences. Volume 1 | Issue 3 | 2020 umumiy o’rta ta’lim maktablarida dars mashg’ulotlarini Autoplay Media Studio dasturi orqali integratsiyalash

9. Xusan Xolmuratovich Muratov. Tasviriy san’at fanidan mustaqil ta’limni tashkil etish va boshqarishda “iSpring” dasturiy ta’minotining ahamiyati *Academic Research in Educational Sciences \ Vol. 1 No. 2, 2020*

10. iSpring Free справка 2017 г.

11. <https://autoplay-media-studio.softonic.ru/>

12. <https://www.delphitech.kz/>

13. <https://aleksius.com/autoplay-media-studio/instruktsiya>

14. <https://www.indigorse.com/autoplay-media-studio/>